



CHETDAN OLIB KELINGAN KALIFORNIYA ZOTIGA MANSUB ERKAK QUYONLARINI MAHALLIY ONA QUYON POPULYATSIYASI BILAN CHATISHTIRISH

Farrux Serverovich Allashev

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi

Annotatsiya: Quyunchilik seleksiyasida chatishtirish va juftlash usullarini qo'llash orqali ona quyonlar naslli elita erkak quyonlari bilan qochiriladi. Juftlash usulida sof zotli va liniyalar yoki krosslardan foydalanansa, chatishtirish usulida qon singdirish, qon quyish, sanoat va murakkab usullarda chatishtirganda har xil quyon zotlari qatnashadi.

Kalit so'zlar: Sof zotli, liniyalar, qon singdirish, qon kuyish, sanoat va murakkab usullarda. Naslchilik quyonlarini mahalliy ona quyon populyatsiyasi bilan chatishtirish.

Abstract: Breeding of female rabbits with elite male rabbits is carried out by using cross-breeding and mating methods in rabbit breeding. In the mating method, purebred, and lines or crosses are used, in the crossbreeding method, blood absorption, blood burning, industrial and complex methods of breeding involve various breeds of rabbits.

Kirish

Respublikamizda urchitilayotgan Kaliforniya zotiga mansub quyonlarning biologik xususiyatlarini va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish natijasida "Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi" tomonidan tajriba o'tkazish uchun mini quyonxonalar tashkil qilingan bo'lib, resurs tejamkor miniferma konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Chetdan olib kelingan quyon zotlarini mahalliy quyon populyatsiyasi bilan chatishtirish orqali keskin o'zgaruvchan iqlimga moslashuvchan interbred broyler gibridlar yaratishdan iborat.

Tajribadagi 10 bosh F1 duragay quyonlarni qochirishdan avval olingan qon ko'rsatkichlari WBC leykotsitlar soni $9,03 \pm 0,28 \cdot 10^9/L$, Lymph# limfotsitlar soni $54,0 \pm 1,33 \cdot 10^9/L$, RBC eritrotsitlar soni $5,65 \pm 0,34 \cdot 10^{12}/L$, HGB gemoglobin kontsentratsiyasi $20,1 \pm 0,60 \text{ g/l}$, HCT gemokrit $39,69 \pm 0,96,8\%$, MCV eritrotsitlar xajmi $34,60 \pm 0,90 \text{ fl}$, MCH o'rtacha eritrotsitli gemoglobin $19,28 \pm 0,50 \text{ pg}$, PLT trombosit $4,25 \pm 0,23 \cdot 10^9/L$ qondagi shaklli elementlar o'rtacha tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar bo'g'ozlik davriga kelib quyidagicha bo'ldi: WBC leykotsitlar soni $6,56 \pm 0,33 \cdot 10^9/L$, Lymph# limfotsitlar soni $49,91 \pm 1,4 \cdot 10^9/L$, RBC eritrotsitlar soni $6,06 \pm 0,40 \cdot 10^{11}/L$, HGB gemoglobin kontsentratsiyasi $20,6 \pm 0,63 \text{ g/l}$, HCT gemokrit $35,82 \pm 1,18\%$, MCV eritrotsit xajmi $34,12 \pm 0,78 \text{ fl}$, MCH o'rtacha eritrotsitli gemoglobin $21,06 \pm 0,42,5 \text{ pg}$, PLT.

Tajribadagi 10 bosh F1 duragay quyonlarni urtacha sut emizish davrida

olingan qon ko'rsatkichlari WBC leykotsitlar soni avgust oyida $9,62 \pm 1,26 \cdot 10^8/L$, tashkil qilib bug'ozlik davriga nisbatan $2.92 \cdot 10^9/L$ ortgan Lymph# limfotsitlar soni $57,5 \pm 1,82 \cdot 10^9/L$, $12,65\%$ -ga ortgan RBC eritrotsitlar soni $4.83 \pm 1.08 \cdot 10^{12}/L$, tashkil qilib $1,23 \cdot 10^{12}/L$ kamaygan. o'z navbatida eritrotsitlarning miqdorini 2.72 g/l , kamayishi kuzatildi.

Olingan qon tahlillarning xulosasi shuni ko'rsatadiki sut emizish davrida qonning organizimni ximoyalovchi leykotsitlar miqdorini ortishi birinchidan sut berish davrining boshlanishi va ikkinchidan yosh o'suvchi quyon bolalarini immun sistemasini tashkillashtirish, uning faoliyatini oshirish va ularning yashovchanligini saqlab qolish uchun ona quyonlar qoni tarkibida leykotsitlar miqdorini oshganligiga guvox bo'ldik.

2023-yil 27–28-fevralda tajribadagi 50 bosh F1 duragay urg'ochi quyonlar tarozidan yakkama-yakka o'tkazilib tanlandi. Shu kuni ularning bonitirovkasi o'tkazildi va bonitirovka natijasiga ko'ra I-klassga suyagi baquvat, ko'kragi keng va chuqur, beli to'g'ri, oyoqlarining tuzilishiga ko'ra to'g'ri, quloqlari to'g'ri va tanasiga tekis qo'shilib ketgan, juni terini puflaganda 4 mm dan katta ochilmagan zich jun tuzilishiga ega bo'lgan 30 ta urg'ochi quyonlar mavjudligi aniqlandi. Keyingi tajribalar uchun ulardan 21 bosh urg'ochi quyon tanlab olindi va 3 guruhga bo'linib kataklarga joylashtirildi.

Qolgan 9 ta va II-klas talabiga javob beradigan quyonlar Samarqand viloyati Narpay tumanidagi Quyonchilik selektsiya va genetika markazi bilan hamkorlikda ilmiy ishlarni olib borayotgan "Axakchi" MFY dagi "Nosirov Sardor" fermer xo'jaligiga ko'paytirish xususiyatlari va boshqala ko'rsatkichlar bo'yicha kuzatuvlar olib borish uchun jo'natildi.

Tajribadagi quyon bolalarini onasidan 45 kunlik yoshida ajratishning texnologiyasiga asoslangan holda tajribadagi o'rg'ochi quyonlarni Kaliforniya erkak naslli quyon bilan 01-05.06 2023 y juftlanib 01-05.07.2023 y olingan quyon bolalari tug'ilganda yakkama-yakka tarozidan tortib olinib ularning o'rtacha og'irligi $46,03 \pm 1,69 \text{ g}$ tashkil qilgan bo'lsa 21 kunlik yoshiga kelib o'rtacha $576,69 \pm 12,20 \text{ g}$ tashkil qildi, Quyon bolalarining 21 kunlikda o'rtacha mutloq o'sishi $529,67 \pm 11,95 \text{ g-ni}$ ($R > 0,998$) tashkil qildi. Tajribadagi ona quyon o'rtacha 1 boshiga sut maxsuldorligi 21 kunda o'rtacha $1060 \pm 23,88 \text{ g-ni}$, 30 kunsut imizish davrida sut miqdori o'rtacha bir boshga $1573,71 \pm 26,00$, quyon bolalarining o'rtacha 30 kunlik o'rtacha trik vazni 1 boshga $832,40 \pm 12,81 \text{ g-ni}$ tashkil qildi.

Tajribadagi quyon bolalari 45 kunlik yoshiga yetganda 1 marta tug'ishdan olingan F2 duragay quyon bolalari 15-20.08.2021 yil aloxida kataklarga olinib, ularning ajratish davridagi o'rtacha tirik vazni $1211,00 \pm 17,8 \text{ g}$ tashkil qilgan bo'lsa 30 kun boqish davrida $871,87 \pm 9,72 \text{ g-ni}$ o'rtacha $2082,60 \pm 17,32 \text{ g-ni}$ tashkil etdi. Ona quyonlardan 2-marta bolalarini 45 kunlik onasidan ajratish 15-19.09.2021 y amalga oshirildi.

Olib borilgan F1 duragay ona quyonlar bonitirovkadagi o'lchov ishlari natijasida urg'ochi quyonlarning tana tuzilishi ekstrer ko'rsatkichlari tana o'lchamlari bo'yicha o'rtacha qochirish davrida quyidagicha bo'ldi, tana uzunligi o'rtacha $53,9 \pm 0,62 \text{ sm-ni}$, ko'krak aylanasi o'rtacha $34,7 \pm 0,84 \text{ sm-ni}$ tashkil etgan bo'lsa, zichlik indeksi $-60,09\%$ o'sganligini ko'rsatdi.



Tadqiqotlar davomida tarozida yakama-yakka tortish natijalari F2 duragay quyonchalar tug'ilganda nisbatan 21 kunlikda quyonchalar 12,06 barobar, 30 kunlikda esa 17,43 barobar, 21 kunlikga nisbatan 30 kunlikda 1,45 barobar oshganligi aniqlandi. Olingan natijalarimiz ko'pgina zootexnik olimlarning quyonchalarda o'sish sura'ti uning sut emish davrida tez o'sishiga guvoh bo'ldik quyonchilik bilan shug'illanuvchi olimlar fikrlarini tasdiqladi. Quyonchalarning tirik vaznining to'jinsiy voyaga yetganucha O'zbekiston sharoitida davriy o'zgarishlari tadqiqotlari davom etmoqda.

Xulosa

1. O'zbekiston sharoitida quyonlarni boqishni tashkil etilganda urg'ochi quyonlardan 11 boshdan ortiq quyon bolachalari olish mumkin lekin ona quyonlarning sut so'rg'ichlari soniga ko'ra uning bolalarining kattaligi, xarakatchanligiga qarab uning yelinlari soni miqdorida 6-7 boshini o'sishga qoldirish maqsadga muvofiq.

2. Tajribada o'tkazilgan quyonlar qonining gematologik tahlillari natijalari ko'rsatkichlari me'oriyligi quyonlarni kataklarda ushlashga hamda rezistentligi chidamlilik darajasi mikro iqlim tashkil qilish orqali O'zbekistonning o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashganligidan dalolat beradi.

3. Tajribadagi F1 ajratilgan kelgusidagi ona quyonlarning o'rtacha kunlik berilgan ozuqaning iste'moli 70,6-95,8%-ni tashkil etdi. Bunda kun sovushi bilan quyonlar o'z tana haroratini saqlash uchun saflanayotgan energiyasini ozuqalar iste'moli miqdorlarini oshirishi va ularda olayotgan oshiqcha energiyalar hisobiga qoplashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandrov V.N., Valueva T.K. Kompleksnaya otsenka genotipov krolikov //Zootexniya. 1998. – №5. -s. 11. 12.
2. Zusman N.S., Ромытко V.N. Soderjanie krolikov//Uchebnaya kniga krolikovoda. M., «Kolos», 1972. – s.50.53.
3. Kalugin YU.A. Kormlenie krolikov//M., Agropromizdat, 1985.
4. Xramova. E. Razvedeniya krolikov bez oshibok 2020 g Naznocheniya kajdoy parod, kak pravilno vibrat, soderjit, kormit lechit 5. S.Sisoev, V.N.Aleksandrovlarning (1985).
6. Сысоев B.C. Myasnaya produktivnost//Krolikovodstvo. M., Agropromizdat. – 1985.
7. Rostovsev N.F. Geterozis v myasnom skotovodstve//Vestnik s.-x.nauki. 1965. – №6.
8. Bataev A.A. Otchet po marketingu v krolikovodstve// M., firma «Kedr-95», 1996
9. Сысоев B.C., Aleksandrov V.N. Sistema soderjaniya krolikov// Krolikovodstvo. M., Agropromizdat. – 1985.- s.1621.168.
10. Parillo L.E. Dorazhivanie broylernyx krolchat// Krolikovodstvo i zverovodstvo. 1969. – №5.